



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2021/5



MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ
NAZARIYASI VA TARIXI.
HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- | | |
|----|---|
| 6 | ОДИЛҚОРИЕВ ХОЖИМУРОД ТҮХТАМОРДОВИЧ
Қонунчиллик ҳужжатлари тизимини такомиллаштиришнинг замонавий ҳуқуқий асослари |
| 14 | МУХИТДИНОВА ФИРЮЗА АБДУРАШИДОВНА
Роль преемственности трудов Гафура Гуляма в развитии духовно-просветительских традиций будущих юристов |
| 21 | ISMOILOV BEKJON SALIOVICH
Nogironligi bo'lgan shaxslar ta'limi sohasida O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish muammolar |
| 31 | ШАЯКУБОВ БАБУР АХМАДЖАНОВИЧ
Стратегическое планирование: теоретические и методологические аспекты |

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ.
MA'MURIY HUQUQ.
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- | | |
|----|--|
| 39 | БЕКОВ ИХТИЁР РУСТАМОВИЧ
Ўзбекистонда кўп partiyavий тизимнинг шакланиши ва ривожланиши |
| 50 | RAKHIMOV DILMURODJON GULOMJON OGLI
Some issues of the legal status of civil servants in Uzbekistan |

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA
HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- | | |
|----|---|
| 59 | БОЗАРОВ САРДОР СОХИБЖОНОВИЧ
Искусственный интеллект: возможна ли ответственность роботов? |
|----|---|

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL
HUQUQI. XO’JALIK PROTSESSUAL
HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA
MEDIATSIYA

- 70 **ХАБИБУЛЛАЕВ ДАВЛАТЖОН ЮЛЧИБОЕВИЧ**
Fuqarolik ishlari bўйича birinchi
instansiya суди xўжжатларини
takomillashaftirosh masalalari
- 81 **ҲАКБЕРДИЕВ АБДУМУРАД АБДУСАЙДОВИЧ**
Ҳакамлик sud ishlarini raqamlashtirishda sun'iy
intellektning o'rni
- 88 **PIRMATOV OTABEK SHAVKATOVICH**
Fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokuror
ishtiropining ayrim masalalari
- 95 **XUDOYNAZAROV DADAXON AVAZ O'G'LΙ**
Iqtisodiy sud ishlarini yuritishda prokuror
ishtiropining ayrim masalalari
- 101 **DAVRONOV DONIYORBEK ABDULLO O'G'LΙ**
Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual
majburlov choralarini tadqiq etish muammolari
- 110 **ХАЙРУЛИНА АСАЛЬ БАХОДИРОВНА**
Возникновение и развитие альтернативных
способов разрешения споров: национальный
и зарубежный опыт
- 117 **BEBUTOVA ZARNIGOR FAXRIDDINOVNA**
Fuqarolik protsessida advokat faoliyatining
dolzarb muammolari: milliy va xorijiy tajriba
- 125 **СУБХОНОВ ШЕРАЛИ МУХАММАД УГЛИ**
Некоторые вопросы совершенствования
механизма исполнения судебных решений
о взыскании алиментов
- 133 **ГАЗИЕВ ШАХРУХ МУРОДАЛИЕВИЧ**
Харбий ijtimoiy-xукуқий ximoya:
tushunchasi va moxijati
- 140 **ТОШОВ МУХАММАД РАЖАБОВИЧ**
Ўриндошлик асосида ishlamайдиган boşqa
ходимнинг ishga қабул қилиниши, shuningdek,
ўриндошлик иши cheklanganligi sabbabli
meҳnat шартномасини bekor қилиш masalalari

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI.
IJTIMOIY TA'MINOT HUQUQI

**12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI
OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI**

- 148 **SUNNATOV VOHID TOSHMURODOVICH**
Qilmishni kvalifikatsiya qilish tushunchasi,
metodologik asoslari va bosqichlari

- 156 **TOШПҮЛАТОВ АКРОМ ИКРОМОВИЧ**
Жиноят-хуқуқий принциплар: моҳият,
тушунча ва белгилар

- 166 **ALOYEV ULUG'BEK MAXMUDOVICH
ROZIMOVA QUNDUZ YULDASHEVNA**
Korrupsiyani keltirib chiqarishga ta'sir etuvchi
omillar

- 174 **АНОРБОЕВ МУРОДЖОН
РАХМАНКУЛ УГЛИ**
Общая характеристика преступлений
против правосудия

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 182 **USMANOVA SURAYYO BULTAKOVNA**
The legal and institutional regulation of tourism
in the Republic of Uzbekistan: emergence and
development

**13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA
NAZARIYASI VA METODIKASI
(SOHALAR BO'YICHA)**

- 190 **АЗИМОВ ҲАКИМАЛИ ИМОМОВИЧ**
Амир Темурнинг тарихий мероси – инсоният
тараққиётининг муҳим омили

UDC: 343.37(042)(575.1)

KORRUPSIYANI KELTIRIB CHIQARISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Aloyev Ulug'bek Maxmudovich,

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura Akademiyasi
mustaqil izlanuvchi,
e-mail: umiulugbek@mail.ru,
ORCID: 0000-0003-3735-1595

Rozimova Qunduz Yuldashevna,

Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish
kafedrasи dotsent v.b, PhD,
e-mail: q.rozimova@gmail.ru,
ORCID: 0000-0003-4475-0455

Annotatsiya. Ushbu maqolada korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan milliy normativ-huquqiy hujjatlardagi ayrim omillar tahlil qilingan. Jumladan, normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etishning fuqarolar uchun qimmatligi, qonunchilikda davlat organlariga haddan tashqari keng vakolatlarning berilganligi, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar sifatida tahlil qilingan. Shu bilan birga, qonun hujjatlari va ular loyihibarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish tegishli davlat organi tomonidan ishlab chiqilgan hujjatdagi korrupsiya omillarini bartaraf etishda muhim ahamiyatga egaligi va nazariyada qonun hujjatlari normalari talablariga rioya etishning qimmatligi sabablari ko'rsatilgan. Korrupsiyani keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan yangi tartib-taomil yaratish usuli jamiyatdagi muayyan muammoni vaqtinchalik hal etishga yordam bersa-da, normativ-huquqiy hujjat qabul qilingandan to kuchga kirgunga qadar mazkur hujjatning kelgisida korrupsiyaga ta'sirini baholab bermasligiga ham e'tibor qaratilgan. O'zbekistonda xufiyona iqtisodiyotning yuqori darajasi saqlanib qolinayotganligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyotida xufiyona iqtisodning ulushi ham ko'rsatilgan. Mazkur maqolada korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: normativ-huquqiy hujjatlar, korrupsiya, qonun normasi, mansabdar shaxs, ma'muriy to'siqlar, qonun talabi, xufiyona iqtisodiyot, diskretsion vakolatlar, ma'muriy javobgarlik.

О НЕКОТОРЫХ ПРИЧИНАХ, ОКАЗЫВАЮЩИХ ВЛИЯНИЕ НА ВОЗНИКНОВЕНИЕ КОРРУПЦИИ

Алоев Улугбек Махмудович,

самостоятельный соисполнитель
Академии Генеральной прокуратуры Республики Узбекистан

Розимова Кундуз Юлдашевна,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),
и.о. доцента Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В этой статье анализируются некоторые факторы национального законодательства, которые могут привести к коррупции. В частности, важность соблюдения требований нормативных актов для граждан, превышение полномочий государственных органов в рамках законодательства,

а также антикоррупционная экспертиза нормативных актов были проанализированы как факторы, способствующие коррупции. Также разработан соответствующий документ государственного органа о важности антикоррупционной экспертизы законодательства и их проектов в устранении факторов коррупции, обоснованы причины значимости соблюдения требований законодательства в теории. Также обращается внимание на то, что создание новой процедуры, которая может привести к коррупции, временно решает конкретную проблему в обществе, но оценить будущее влияние этого документа на коррупцию с момента его принятия до его вступления в силу невозможно. По данным Министерства экономического развития и сокращения бедности, доля теневой экономики в экономике Узбекистана также высока. Эта статья содержит предложения и рекомендации по устранению факторов, вызывающих коррупцию.

Ключевые слова: нормативно-правовые акты, коррупция, норма права, должностное лицо, административные препятствия, требования закона, теневая экономика, дискреционные полномочия, административная ответственность.

THE FACTORS WHICH CAUSE THE OCCURRENCE OF CORRUPTION

Aloev Ulugbek Mahmudovich,
The Republic of Uzbekistan
General Prosecutor's Academy
independent researcher

Rozimova Kunduz Yuldashevna,
Tashkent State Law University
Senior Lecturer, PhD

Abstract. This article analyzes some of the factors in national regulations that can lead to corruption. In particular, the value of compliance with the requirements of regulations for citizens, the over-empowerment of public authorities in the legislation, as well as the anti-corruption expertise of regulations were analyzed as factors contributing to corruption. Additionally, the document developed by the relevant state body on the importance of anti-corruption examination of legislation and their drafts in the elimination of corruption factors and the reasons for the value of compliance with the requirements of the legislation in theory. Attention is also drawn to the fact that the creation of a new procedure that can lead to corruption will help to temporarily solve a particular problem in society, not to assess the impact of this document on corruption in the future from its adoption to its entry into force. According to the Ministry of Economic Development and Poverty Reduction, the share of the shadow economy in the economy of Uzbekistan is also high. This article contains suggestions and recommendations to eliminate the factors that cause corruption.

Keywords: legislation acts, corruption, rule of law, official, administrative obstacles, legal requirements, shadow economy, discretionary powers, administrative responsibility etc.

Har qanday huquqiy demokratik jamiyatda amalidagi normativ-huquqiy hujjatlar mamlakat-dagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Qonun hujjatlarida korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan bir qator omillarning mavjudligi ham jamiyatda ushbu illatning avj olishiga xizmat qiladi.

Bunday omillarning asosiyлari sifatida quyi-dagilarni sanab o'tish mumkin:

– jamiyatda fuqarolar uchun qonun normasiга rioya etish bahosining qimmatligi. Ushbu

omilning o'ziga xosligi shundaki, fuqaroning qonunda belgilangan huquqlarni amalgalashishi yoki majburiyatlarga rioya etishi uning ko'p mablag'i sarflanishiga olib kelishi mumkin.

Nazariyada qonun hujjatlari normalari talablariga rioya etishning qimmatligi sabablarini turli-cha izohlovchi ikki xil yondashuv uchraydi.

Birinchi yondoshuvga ko'ra qoidalarning qimmatligi endogen korrupsiya nazariyasi doirasida [1], ya'ni byurokratik tizim byurokratlari tomonidan ataylab sun'iy to'siq bo'lgan normalar yaratiladi. Mazkur nazariyaga muvofiq, boshqaruvchilar va ijrochilar o'rtaсидаги ма'lumotlar almashinuvni

tufayli muayyan qoidalar tizimini joriy etish orqali daromadlar oqimi yaratiladi hamda ular o'rtasida taqsimlab olinadi.

Bunda mansabdar shaxslarga muayyan sohan (masalan, tadbirkorlik faoliyatining muayyan yo'nalishlarini) tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha vakolatlar berilganligi ushbu soha uchun muayyan harakatlarni sodir etishni taqiqlovchi yoki qo'shimcha xarajatlar sodir etishga majburlovchi qoidalar yaratish, ya'ni tartibga solish obyektiga nisbatan haddan tashqari ko'p talablar belgilashga qaratilgan qoidalar qabul qilish orqali amalga oshiriladi [2].

Boshqacha aytganda mansabdar shaxslar ko'proq daromad olish maqsadida muayyan sohaning tartibga solinganlik darajasini oshirish qobiliyatiga egadirlar. Bu haqda so'z ketganda D.Kaufman "pora olishga moyil bo'lgan mansabdar shaxslar huquqni qo'llash jarayonida qonun normasini maksimal darajada o'zlarining g'arazli manfaatlari yo'lida talqin qilishlari mumkin" deb hisoblaydi. Mansabdar shaxslar tomonidan yaratilagan bunday normalar "ma'muriy to'siqlar" deb nomlanadi [3].

Bunday ma'muriy to'siqlarni quyidagi ikki turga ajratish mumkin:

1) qoidaning mazmunidan kelib chiqadigan korrupsiya;

2) huquqni qo'llashdagi korrupsiya.

Demak, ma'muriy to'siq korruption qoidani amalga kiritish hamda korrupsiyanı keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan yangi tartib-taomil yaratish yoki huquq va erkinliklardan foydalanishga ruxsat berish, shuningdek, qoidalarni amalga oshirish tartibini belgilash orqali yaratilishi mumkin.

Mazkur yondoshuvdag'i asosiy muammo muayyan ma'muriy to'siqlarni (sifat yoki miqdor bo'yicha) izlash vositalarining cheklanganligida namoyon bo'ladi. Bunda kuzatuv va so'rovnomalar ma'muriy to'siqlarni aniqlashning asosiy vositalari bo'lib xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, ma'muriy to'siqning haqiqatdan mavjudligi muayyan vaziyatga oid ma'lumotni bevosita o'rganish orqali tasdiqlanadi yoki rad etiladi.

Masalan, 2017-yilda 228 ta holatda daryolar o'zanlarini tozalash va qirg'oqlarini mustahkamlash, noruda foydali qazilmalarni qazib olish ishlarini noqonuniy amalga oshirilganligi faqatgina ushbu sohan alohida kuzatish hamda o'rganish orqaligina aniqlash mumkin [4].

E'tiborlisi, bunday usul natijasida ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjat qabul qilingunga qadar uning korrupsiyanı keltirib chiqarish ehtimolini baholash imkonini bermaydi. Shu sababli ham, aynan bir masalaning oqilona yechimini topish tegishli muammoni bir necha marotaba o'rganishinga, ko'plab davlat resurslarining sarflanishiga olib kelishi mumkin.

Ayrim hollarda esa qancha normativ-huquqiy hujjat qabul qilinsa-da, baribir ulardagi korrupsiyanı keltirib chiqaruvchi omillar saqlanib qolaverishi ham mumkin.

Fikrimizni so'nggi yillarda daryolar o'zanlarini tozalash va qirg'oqlarini mustahkamlashga bag'ishlangan normativ-huquqiy hujjatlar misolda ko'rishimiz mumkin. 2017–2021-yillard mobaynida ushbu sohan tartibga solishga qaratilgan 10 ga yaqin O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, 3 ta Hukumat qarorlarining qabul qilinishiga sabab bo'ldi [5].

Demak, korrupsiyanı keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan yangi tartib-taomil yaratish usuli jamiyatdagi muayyan muammoni (qonun buzilishi va b.) vaqtincha hal etishga yordam bersa-da, normativ-huquqiy hujjat qabul qilingandan to kuchga kirgunga qadar mazkur hujjatning kelgusida korrupsiyaga ta'sirini baholab bermaydi. Ijtimoiy foyda va xarajatlarni hisoblashning murakkabligi ham ushbu usuldan qo'llashning maqsadga muvofiq emasligidan dalolat beradi.

Ma'muriy to'siqlarni aniqlashda boshqacha yondashuv perulik iqtisodchi E. de Soto tomonidan taklif etilgan. Uning fikricha, har doim jismoniy va yuridik shaxslarda huquq normasi talabiga rioya etish yoki xufiyona sohada faoliyat yuritish tanlovi saqlanib qoladi.

Mazkur yondoshuvga muvofiq, agar qonun normasi haddan tashqari qimmat bo'lsa, muqobil dunyo, ya'ni huquqiy tartibga solish obyektining noqonuniy dunyosida yashashi qulayroqdir. Chunki, bunday yondoshuvda korrupsiyaning turi, ya'ni tartib-taomil yoki muayyan qoidaning (moddiy yoki protsessual huquq normasining) korrupsiyalashganligi hech qanday ahamiyatga ega emas [6].

Bunda jismoniy yoki yuridik shaxs qaror qabul qilishdan oldin ikkala holatning, ya'ni qonunga bo'ysunib faoliyat yuritish bahosi bilan noqonuniy faoliyat yuritish bahosini o'zaro taqqoslaysidi va uning natijasida odatda quyidagi xulosalardan biriga keladi:

1) qonunga bo'ysunib faoliyat yuritish bahosi > noqonuniy faoliyat yuritish bahosi;

2) qonunga bo'ysunib faoliyat yuritish bahosi < qonunni buzgan holda faoliyat yuritish bahosi.

Yuqorida keltirilgan birinchi holatda bevosita korrupsiyaviy huquq normasining noqonuniy faoliyat yuritish bahosidan ustunligi nazarda tutiladi. Bunda "qonunga bo'ysunib faoliyat yuritish bahosi" quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

- qonuniy faoliyat yuritish xarajatlari (masalan, yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish, litsenziya olish uchun sarflanadigan to'lovlar va boshqalar);

- qonuniy faoliyatni amalga oshirish jarayonida sarflanadigan xarajatlar (masalan, soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar) [7].

Odatda qonun talabiga rioya etish ko'plab xarajatlars talab qilishini aniqlagan iqtisodiy faoliyat subyektlari faoliyat yuritish arzonroq yoki tekin bo'lgan iqtisodiyotning xufiyona sektoriga o'tadilar. Shu bilan birga, noqonuniy faoliyat yuritish ham katta xarajatlarni talab qiladi.

Jumladan, noqonuniy faoliyat yuritayotgan tadbirkor uning faoliyatidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar xabar topmasliklari uchun qo'shimcha ravishda muayyan mablag'larni sarflashiga to'g'ri keladi. Masalan, Vazirlar Mahkamasining 20.05.2020-yildagi 301-sonli "Alkogol mahsulotlarining ulgurji savdosiga bo'yicha faoliyatni litsenziyalash tartibi, shuningdek, litsenziya talablarini va shartlarini buzganlik uchun qo'llanadigan choralar va sanksiyalar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorida alkogol mahsulotlarining ulgurji savdosiga litsenziya bergenlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) 200 barabari miqdorida yillik litsenziya to'lovi undirilishi belgilangan [8].

Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2020-yildagi "O'zbekiston Respublikasining "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4938-sonli qarori bilan bazaviy hisoblash miqdori – 245 000 so'm etib belgilangan [9].

Shunday ekan, alkogol mahsulotlarining ulgurji savdosi bilan qonuniy shug'ullanmoqchi bo'lgan tadbirkor birgina yillik litsenziya to'loving o'ziga 245 000*12=49 000 000 (qirq to'qqiz million) so'm pul to'lashiga to'g'ri keladi.

Bunday vaziyatda tadbirkor litsenziya olmasdan o'z faoliyatini noqonuniy amalga oshirish orqali, qirq to'qqiz million so'm yillik litsenziya to'lovini aylanma mablag' uchun sarflashni afzal deb biladi. Albatta, bunday faoliyatni amalga oshirish muayyan xatarlarni keltirib chiqarishi sababli tadbirkor alkogol mahsulotlarning ulgurji savdosini nazorat qiluvchi yoki boshqa (masalan, ichki ishlar organi va b.) davlat organi xodimini haq evaziga "mukofotlash" tizimini yo'lga qo'yadi.

Har oy davlat xizmatchisiga to'lanadigan "mukofotlar" esa noqonuniy faoliyat yuritayotgan shaxslarni qonun doirasidan tashqarida, xufiyona iqtisodiyotda bo'lishlarining o'ziga xos kafolatlash mexanizmi bo'lib xizmat qiladi.

Tadbirkorlik subyektlariga ma'muriy to'siq bo'lib xizmat qilib kelayotgan bunday misollar ni ko'plab keltirish mumkin. Aynan qayd etilgan xarajatlarning ko'pligi tufayli O'zbekistonda xufiyoni iqtisodiyotning yuqori darjasini saqlanib qolmoqda. Jumladan, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yilda O'zbekiston iqtisodiyotida xufiyona iqtisodning ulushi 52,11 foizni tashkil etgan.

O'z navbatida, bunday ko'rsatkich rivojlangan davlatlarda bir necha barobar past ekanligini ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, 2019-yilda xufiyona iqtisodiyot AQShda 8,0 %, Braziliyada 36,5 %, Ispaniyada 21,7 %, Italiyada 19,5 %, Portugaliyada 18,5 %, Koreyada 18,4 %, Xitoyda 14,5 %, Kanadada 11,0 %, Germaniyada 10,2 %, Buyuk Britaniyada 9,6 %, Avstralaliyada 9,0 %, Singapurda 8,6 % va Yaponiyada 8,1 %ni tashkil etgan [10].

Demak, qonun normasi talabiga rioya qilish bahosining haddan tashqari qimmatligi iqtisodiyotda xufiyona sektorning rivojlanishini rag'batalantiradi, jamiyatda korrupsiyaning avj olishiga olib keladi.

Ikkinci yondoshuv qabul qilish lozim bo'lgan qoidalar qimmatligining sababini izohlaydi. Adabiyotlarda deputatlar tomonidan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish usullarining haddan tashqari qattiq yoki kam korrupsiyalashgan usullari tanlanishi ta'kidlanadi.

Bunda qattiq usulda kuchli davlat nazorati tushunilsa, kam korrupsiyalashgan usul sifatida kuchsiz davlat nazorati, ya'ni ustuvor ravishda qonun normalarini amalga oshirish uchun iqtisodiyotda xufiyona iqtisodiyotning yuqori darjasini saqlanib qolmoqda. Jumladan, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yilda O'zbekiston iqtisodiyotida xufiyona iqtisodning ulushi 52,11 foizni tashkil etgan.

sodiy ta'sir choralarini qo'llash va o'zini o'zi boshqarishdan foydalanish nazarda tutiladi.

Agentlikning ustuvor ravishda axborotga ega bo'lishdagi ustuvorligi sifatida agentlik munosabatlari nazariyasi korrupsiyani keltirib chiqaruvchi yana bir omillardan biri hisoblanadi. Bunda agentlik munosabatlari ishonch bildiruvchi agentiga o'ziga tegishli bo'lgan ayrim huquqlarni (masalan, tabiiy resurslardan foydalanish huquqi) u yoki bu tarzdagi mukofot evaziga uning manfaatlарини ifodalash orqali belgilanadi [11].

Ma'muriy tizimda har bir mansabdor shaxs tegishincha yuqori turuvchi boshqa mansabdor shaxsning agenti hisoblanadi. Shunday ekan, ishonch bildiruvchi va agentning manfaatlari har doim ham bir-biriga mos kelavermaslik ehtimoli yuqoriligi sababli agent ishonch bildiruvchi uchun nomaqbul bo'lgan qarorlar qabul qiladi. Xususan, agentda haddan tashqari ko'p resurslar va imkoniyatlarning mavjudligi, ularni samarali tiyib turuvchi mexanizmlarning yo'qligi o'ziga ishonch bildiruvchining nuqtayi nazariga zid bo'lgan qarolarning qabul qilinishiga olib keladi.

Shu bilan birga, agentlar vakolatlarini tiyib turuvchi samarali mexanizmlar ham qonunchilik tajribasida mavjudligini ta'kidlash joiz. Ularga davlatning u yoki bu funksiyalarini amalga oshirishning batafsil tartibi aks etgan normativ-huquqiy hujjat hisoblanuvchi ma'muriy reglamentlarni misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Samarali mexanizmning yo'qligi deganda qonun normasi mansabdor shaxsga muayyan vaziyatda masalani o'z xohishiga ko'ra ijobjiy hal etish yoki rad etish imkonini beruvchi turli variantlardan birini tanlash huquqining (diskretsion vakolatlar) berilishini tushunish mumkin [12].

Agar qonun normasi bahosining "qimmatligi" bevosita korrupsiyaviy munosabatlarga kirisishga ko'maklashsa, diskretsion vakolatlar qonun chiqaruvchi tomonidan belgilangan haddan tashqari yuqori talablar natijasida korrupsiyaviy harakatlar paydo bo'lishi uchun o'ziga xos sharoit yaratib beradi [13].

Boshqacha aytganda, mazkur korrupsiyaviy omillar o'rtasidagi farq shundaki, qonun normalaridagi haddan tashqari yuqori talablarning o'zi korrupsiyani keltirib chiqarsa, diskretsion vakolatlar mansabdor shaxsga qonun normasining haddan tashqari yuqori talabini qo'llash yoki qo'llashdan voz kechish imkoniyatini yaratadi.

Masalan, amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda (MJtK) ma'muriy jazo qo'l-lovchi organlar va ularning xodimlariga sodir etilgan ma'muriy huquqbazarliklar uchun quyidagi bir nechta huquqiy oqibatlar nazarda tutilgan:

- sodir etilgan huquqbazarlik uchun ogohlantirish qo'llash;

- tegishli ma'muriy huquqbazarlik uchun kodeksda nazarda tutilgan minimal jarima jazosi qo'llash;

- ma'muriy huquqbazarlik uchun kodeksda nazarda tutilgan maksimal miqdorda ma'muriy jarima jazosi qo'llash [14].

Qayd etish joizki, amaldagi MJtK kam ahamiyatlari huquqbazarlik uchun ogohlantirish qo'llagan holda ma'muriy javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutadi. Biroq, qanday qilmishlarni kam ahamiyatlari deb topishni sudga havola etadi.

Jumladan, MJtKning 21-moddasida sodir etilgan ma'muriy huquqbazarlik kam ahamiyatlari bo'lgan taqdirda, sud huquqbuzarni ma'muriy javobgarlikdan ozod etib, uni ogohlantirish bilan kifoyalanishi mumkinligi belgilangan [15].

Qolaversa, qayd etilgan moddaga binoan agar ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiquvchi suddan tashqari boshqa organ (mansabdor shaxs) sodir etilgan ma'muriy huquqbazarlikning kam ahamiyatliligi haqidagi xulosaga kelsa, ish huquqbuzarni ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish haqidagi masalani hal etish uchun sudga yuborilishi belgilangan.

Shunday ekan, sud yoki vakolatli organ mansabdor shaxsi istalgan huquqbazarlikni o'z ixtiyoriga ko'ra kam ahamiyatlari deb topgan holda huquqbuzarga ogohlantirish berish bilan kifoyalanib, uni javobgarlikdan ozod qilishi mumkin. O'z navbatida, bunday diskretsion vakolatdan tegishli mansabdor shaxslar "beg'araz" foydalanmaydilar [16].

Ma'muriy huquqbazarlik uchun minimal va maksimal jarima qo'llash bevosita sobiq sovet tuzumi qonunchilik tajribasidan "meros" bo'lib qolib kelayotgan amaldagi MJtK sanksiyalarining tuzilishi bilan bog'liqdir. Bunda amaldagi MJtK normalarida huquqbazarlik uchun jarimaning minimal va maksimal miqdori nazarda tutiladi. Masalan, amaldagi MJtKning 501-moddasida mansabdor shaxs tomonidan xususiy bandlik agentliklari to'g'risidagi qonunchilikni buzish uchun BHMning o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima jazosi nazarda tutilgan [15].

Bunda MJtKning 255-moddasiga binoan davlat mehnat inspeksiyasining mansabдор shaxslari xususiy bandlik agentliklari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun mansabдор shaxslarga yengillik berishni istasalar, BHMning 10 baravari, agar bunday yengillikni berishni xohlamasalar, BHMning 15 baravari miqdorda jarima jazosini tayinlaydilar.

Bu esa xususiy bandlik agentliklari mansabдор shaxslarini davlat mehnat inspeksiyasining mansabдор shaxslari bilan "kelishuv"ga erishish orqali sodir etilgan huquqbuzarlik uchun ogohlantirish olish yoki minimal miqdordagi jarima qo'llanishi ga erishishga undaydi.

O'z navbatida, qonunda belgilangan bunday imkoniyat davlat mehnat inspeksiyasining mansabдор shaxslariga ustunlik berib, ularga maksimal jarima tayinlash orqali tadbirkorlik subyektlarini "o'z yo'riqlari"ga yuritish imkoniyatini beradi.

Albatta, ushbu o'rinda huquqbuzarliklarning aniqlanishi va ular uchun tegishli choralarning ko'riliishi jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga egaligini inkor etmaymiz. Faqat aniqlangan huquqbuzarliklarni ko'rib chiqish va jazo chorasi tayinlashda qonunda belgilangan barcha holatlarning o'rganilishi orqaliadolat prinsiplariga rioya etilishini ta'minlash maqsadga muvofiqligini ta'kidlab o'tmoqchimiz, xolos.

Bizningcha, qonun hujjalardagi mansabдор shaxslarning diskretsion vakolatlarini qat'iy cheklash orqali korrupsiya omillarini bartaraf etish maqsadga muvofiq.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, aksariyat xorijiy mamlakatlar ma'muriy jarima jazosining qat'iy miqdorini belgilash yo'liga o'tib ulgurdi. Massalan, qo'shni Qozog'istonning 5-iyul 2014-yildagi Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksda ham huquqbuzarliklar uchun jarima jazosi qat'iy miqdorda etib belgilangan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, amaldagi MJtK Maxsus qismi sanksiyalaridagi jarimalarning muqobil variantini belgilash amaliyotidan voz kechib, ularning qat'iy miqdorini Kodeksda nazarda tutish maqsadga muvofiq.

Bunda javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarni va huquqbuzarning moddiy ahvolini inobatga olgan holda sud tomonidan jarimani kamaytirish yoki boshqa yengil jazo chorasi qo'llash tartibini saqlab qolish taklif etiladi.

- normativ-huquqiy hujjalardagi loyihalaring korrupsiyaga qarshi ekspertizasini tashkil etish va o'tkazishdagi kamchiliklarning korrupsiyaga ta'sirini baholashga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri sifatida qayd etish joiz.

Ma'lumki, korrupsiyaga qarshi ekspertiza deganda normativ-huquqiy hujjalardagi loyihalari korrupsiyaviy omillarni aniqlash, aniqlangan korrupsiyaviy omillarni bartaraf etishga qaratilgan taysiyalarni ishlab chiqish va choralar ko'rishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmui tushuniladi [16].

Qonun hujjalari va ular loyihalaring korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish tegishli davlat organi tomonidan ishlab chiqilgan hujjatdagi korrupsiya omillarini bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Shu sababli, normativ-huquqiy hujjalardagi loyihalarni korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazuvchi tashkilotning mustaqil va betaraf bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Chunonchi, normativ-huquqiy hujjalardagi loyihalaring korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq aynan mustaqillik hamda xolislik prinsiplari korrupsiyaga qarshi ekspertiza o'tkazishning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq O'zbekistonda normativ-huquqiy hujjalardagi loyihalaring korrupsiyaga qarshi ekspertizasi adliya organlari tomonidan o'tkaziladi [17].

Bunda e'tiborlisi, normativ-huquqiy hujjalardagi loyihalarni korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish jarayonida aniqlayotgan kamchiliklar haqida jamoatchilikni xabardor qilish amaliyoti ham yo'lga qo'yilmagan.

Bu bir tarafdan ishlab chiqilayotgan loyihalarda qanday kamchiliklarga yo'l qo'yilayotganligi haqida davlat organlari xodimlari uchun o'ziga xos tajriba maktabi vazifasini o'tasa, ikkinchi tomonidan aholi huquqiy madaniyatining yanada yuksalishiga, ularning davlat organlari tomonidan ishlab chiqilayotgan loyihalardan xabardorligi oshishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.04.2018-yildagi PQ-3666-soni qarori bilan tasdiqlangan Adliya vazirligining nizomiga binoan ushbu vazirlikkha Prezident, Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari bo'yicha va o'z tashabbusiga ko'ra normativ-huquqiy hujjalardagi loyihalarni ishlab chiqish va ularni ko'rib chiqish

uchun belgilangan tartibda kiritish vazifasi ham yuklatilgan [18].

Demak, yuqorida sanab o'tilgan subyektlar topshiriqlari asosida Adliya vazirligi tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilganda vazirlik xodimlari ushbu hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishda to'laqonli mustaqil va xolis bo'la olmaydilar.

Bunda ekspertizadan o'tkazayotgan Adliya vazirligi xodimi mustaqil bo'la olmasligining asosiy sababi tegishli loyiha muayyan darajada idoraviy manfaat (loyihani tegishli subyektga kiritish muddatining qisqaligi, notariat, FHDYO kabi Adliya vazirligi tartibga soluvchi sohalarga tegishli bo'lishi va b.) mavjud bo'lishida namoyon bo'lsa, xolis bo'la olmasligi esa subyektiv omillar bilan bog'liq hisoblanadi.

Xorijiy davlatlarning normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazishga oid tajribasi o'rganilganda ularda ekspertizaning mazkur turi loyihalarni ishlab chiquvchi davlat organlaridan biri emas, balki ishlab chiqishda ishtirok etmaydigan alohi-da tashkilotlar tomonidan o'tkazilishi aniqlandi.

Masalan, xalqaro Transparency International tashkilotining "Korrupsiyani qabul qilish" indeksida 2020-yilda 35-o'rinni egallagan Litvada normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish 2002-yil noyabrda tuzilgan Maxsus tergov xizmati tomonidan amalgam shiriladi [19].

Xalqaro Transparency International tashkilotining "Korrupsiyani qabul qilish" indeksida 2020-yilda 33-o'rinni egallagan Koreya Respublikasida qonun hujjatlarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi Mustaqil komissiya tomonidan o'tkaziladi [20].

Bunday misollarni boshqa xorijiy davlatlarda ham keltirish mumkin. Guvoh bo'lganimizdek, korrupsiyaga qarshi ekspertizani o'tkazuvchi organning mustaqil va xolisligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertiza o'tkazishni Adliya vazirligining vazifalaridan chiqarib tashlash va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi zimmasiga yuklash maqsadga muvofiq.

REFERENCES

1. Izotov M.O. Problema tipologii korruptionnykh otnosheni. Srednerusskiy vestnik obshchestvennykh nauk. 2010, No. 4. <https://cyberleninka.ru/article/n/problema-tipologii-korruptionnyh-otnosheniy/viewer>
2. Turabaeva Z. Issues on enhancing the mechanisms of providing the execution of law documents by state bodies //Review of law sciences. 2018, T. 2, No. 3. p. 30.
3. Turabaeva Z. Y. Prevention and Prophylaxis of Youth Delinquency and Peculiarities of Appointing Punishment to Minors during a Pandemic //Psychology and Education Journal. 2021, T. 58, No. 1, pp. 1043–1049.
4. Kamalova Dildora Gayratovna, Nargiza Raximjonovna Raximjonova. "Jinoyatlarni tasniflash tizimi va mezonlarini takomillashtirishning ayrim masalalari" Jurnal Pravovix issledovaniy special 3 (2020).
5. V.I.Zaxarova Pravovoe regulirovanie antikorruptionnoy ekspertizi v zarubejnix stranax. Probeli v rossiyskom zakonodatelstve. No. 3, 2012, pp. 289.
6. Matkovskiy S.V. Pravovaya priroda antikorruptionnoy ekspertizi // Rossiyskiy sledovatel. 2008, No. 24.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Suv obyektlarini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 25.09.2017-yildagi PQ-3286-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/3356821>
8. Vazirlar Mahkamasining 20.05.2020-yildagi 301-sonli "Alkogol mahsulotlarining ulgurji savdosи bo'yicha faoliyatni litsenziyalash tartibi, shuningdek, litsenziya talablari va shartlarini buzganlik uchun qo'llanadigan choralar va sanksiyalar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/4817426>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2020-yildagi "O'zbekiston Respublikasining "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"-gi PQ-4938-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/5193227>
10. Matkovskiy S.V. Pravovaya priroda antikorruptionnoy ekspertizi // Rossiyskiy sledovatel. 2008, No. 24.

11. Qunduz Rozimova, Ulugbek Aloev. Some Features of Improving the Penal Institution for Several Crimes in the Criminal Law of Uzbekistan in the Fight against Corruption, Jour of Adv Research in Dynamical & Control Systems, Vol. 12, Special Issue-02, 2020 280 DOI: 10.5373/JARDCS/V12SP2/SP20201071
12. Crimes committed due to jealousy victimological description. Abdurasulova Kumrinisa; Zakirova Adina. June 18, 2021 Philosophical Readings: XIII pp. 515-528 (4). Vol 3, No 10 (2021): Volume03Issue10
13. O'zbekiston Respublikasida yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar to'g'risida ma'lumot. <https://mineconomy.uz/uz/info/3758>
14. Qunduz Rozimova, Ulugbek Aloev. Some Features of Improving the Penal Institution for Several Crimes in the Criminal Law of Uzbekistan in the Fight against Corruption/Jour of Adv Research in Dynamical & Control Systems, Vol. 12, Special Issue-02, 2020
15. Stages Of Formation Of Criminological Doctrines In The Republic Of Uzbekistan And Some Tasks Of Modern Criminological Science. Kumriniso Abdurasulova. <http://theamericanjournals.com/index.php/tajpslc/index>
16. Qunduz Rozimova, Ulugbek Aloev. Anti-Corruption Agency and Anti-Corruption Examination of normative legal acts: Compar-ative Analysis, *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 2020, Volume 7, Issue 2, Pages 6364-6368
17. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. <https://lex.uz/docs/97664>
18. Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihamalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom. <https://lex.uz/docs/5306922>
19. Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihamalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom. <https://lex.uz/docs/5306922>
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.04.2018-yildagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3666-son qarori. <https://lex.uz/docs/3681790>
21. <https://www.stt.lt/en/about-stt/historical-background/4967>